

**FARG‘ONA POLITEKNIKA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/27.02.2020.I.106.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

FARG‘ONA POLITEKNIKA INSTITUTI

XAMRAQULOV IXTIYOR BAXTIYOROVICH

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ELEKTROENERGETIKA
KORXONALARINI BARQAROR RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI**

08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Farg‘ona – 2023

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on economical
sciences**

Xamraqulov Ixtiyor Baxtiyorovich

О'zbekiston Respublikasi elektroenergetika korxonalarini barqaror
rivojlantirish mexanizmlari 3

Хамракулов Ихтиёр Бахтиёрович

Механизмы устойчивого развития электроэнергетических
предприятий Республики Узбекистан 27

Khamrakulov Ikhtiyor Bakhtiyorovich

Mechanisms of sustainable development of electric power enterprises of
the Republic of Uzbekistan 51

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works 55

**FARG‘ONA POLITEXNIKA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/27.02.2020.I.106.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

FARG‘ONA POLITEXNIKA INSTITUTI

XAMRAQULOV IXTIYOR BAXTIYOROVICH

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ELEKTROENERGETIKA
KORXONALARINI BARQAROR RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI**

08.00.03 – «Sanoat iqtisodiyoti» (iqtisodiyot fanlari)

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Farg‘ona – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PhD/Iqt2523 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Farg‘ona politexnika insitutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.ferpi.uz) va «Ziyonet» axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Muminova Elnoraxon Abdukarimovna**
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: **Umarov Ilxomjon Yuldashevich**
iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Kambarov Jamoliddin Xikmatillayevich
iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot: **Namangan muhandislik-texnologiya instituti**

Dissertatsiya himoyasi Farg‘ona politexnika instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/27.02.2020.I.106.03 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil «___» _____ kuni soat _____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 150107, Farg‘ona shahri, Farg‘ona ko‘chasi, 86-uy. Tel.: 8(373) 241-12-06, faks: 8(373) 241-12-06, e-mail: ferpi_info@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Farg‘ona politexnika institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 150107, Farg‘ona shahri, Farg‘ona ko‘chasi, 86-uy. Tel.: 8(373) 241-12-06, faks: 8(373) 241-12-06, e-mail: ferpi_info@edu.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil «___» _____ kuni tarqatildi.
(2023-yil «___» _____ dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

I.N.Ismanov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

O.T.Nurmatov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi,
PhD, dotsent

D.Qudbiyev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi
Ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot fanlari doktori,
professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda mamlakatlar iqtisodiyotining barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash hamda raqobatbardoshligini oshirishda energetika tarmog'ini rivojlantirish ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. «Dunyo davlatlari tomonidan 2021-yilda jami ishlab chiqarilgan elektr energiyasining 62 foizi issiqlik elektr stansiyalarining mavjud quvvatlari hisobiga to'g'ri kelgan. Lekin issiqlik elektr stansiyalarining kamchiligi bu atrof-muhitga CO₂ chiqarishi va iqlim o'zgarishiga ta'sir ko'rsatishidir»¹. Ushbu muammolarni hal etish maqsadida mamlakatlar miqyosida strategik qarorlarni qabul qilish, issiqlik elektr stansiyalarini texnik va texnologik jihatdan yangilash, ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiyalash va zamonaviy innovatsion usullarni joriy etish asosida jahon iqtisodiyotining taraqqiy etishiga erishilmoqda.

Jahonda elektr energetikasi korxonalarini faoliyatini barqaror rivojlantirishni amalga oshirish metodologiyasini takomillashtirish yuzasidan ilmiy izlanishlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada energetika sanoati korxonalarining faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, zamonaviy texnologiyalarni maqsadli joriy qilinishini rivojlantirish, samarali boshqaruv hisobiga innovatsion usullarni korxonalar faoliyatiga joriy qilish va loyihalarni investitsiya bilan ta'minlash mexanizmlarini, issiqlik energetikasi korxonalarini barqaror rivojlantirish metodologiyasini takomillashtirish masalalari bu boradagi ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi.

O'zbekistonda iqtisodiyotni raqamlashtirishning hozirgi bosqichida barqaror rivojlantirishni takomillashtirish energetika tarmog'ining raqobatbardoshligini oshirishda asosiy omillardan biriga aylanmoqda. «Iqtisodiyotni elektr energiyasi bilan uzluksiz ta'minlash hamda «Yashil iqtisodiyot» texnologiyalarini barcha sohalarga faol joriy etish, iqtisodiyotning energiya samaradorligini 20 foizga oshirish asosiy masalalardan sanaladi. 2026-yilga kelib elektr energiyasi ishlab chiqarish ko'rsatkichini qo'shimcha 30 milliard kVt.soatga oshirib, jami 100 milliard kVt.soatga yetkazish, 2026-yilga qadar qayta tiklanuvchi energiya manbalari ulushini 25 foizga yetkazish evaziga yiliga qariyb 3 milliard kub metr tabiiy gazni tejash»² vazifalari belgilab berilgan. Energetika korxonalarining faoliyatini barqaror rivojlantirishda ularning samaradorligini oshirish yuzasidan asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish, bunda energetika sanoatini rivojlantirish konsepsiyasiga mos ravishda korxonalar raqobatbardoshligi va ishlab chiqarish quvvatlarining samaradorligini oshirishga nisbatan uslubiy yondashuvlarni nazariy jihatdan asoslash va amaliy mexanizmlarini ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida», 2019-yil 1-fevraldagi PF-5646-sonli «O'zbekiston Respublikasi yoqilg'i-energetika tarmog'ini boshqarish tizimini tubdan takomillashtirish chora-

¹ <https://plus-one.ru/manual/2022/04/14/sposoby-polucheniya-elektroenergii>

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni

tadbirlari to‘g‘risida», 2020-yil 18-iyundagi PF-6010-son «Tabiiy gaz va elektr energiyasini sotish mexanizmini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi farmonlari, 2018-yil 23-oktabrdagi PQ-3981-son «Elektr energetikasi tarmog‘ini jadal rivojlantirish va moliyaviy barqarorligini ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida», 2020-yil 10-iyuldagi PQ-4779-son «Iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish va mavjud resurslarni jalb etish orqali iqtisodiyot tarmoqlarining yoqilg‘i-energetika mahsulotlariga qaramligini kamaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida», 2023-yil 12 maydagi PQ-156-son «Yashil energiya» sertifikatlari tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 9-oktabrdagi VMQ-640-son «O‘zbekiston Respublikasi energetika vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari tarmoqlararo energiyani tejash jamg‘armasi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida»gi qarori hamda boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining »Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish» ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Xalqaro tajribada sanoat korxonalarini barqaror rivojlantirish metodologiyasi va uni amalga oshirish bo‘yicha turli jihatlarini T.Tietenberg, R.M.Solou, R.Kostanza, R.Terner, J.Smit, Y.Shumpeter, U.Nordhaus, J.Tobin, X.Dali, J.Kobb, J.Stiglitz, A.Sen, J-P.Fitouzi, X.Land, S.Frideriksen, S.Verner, Ye.Lauf va boshqa olimlarning ilmiy ishlarida kuzatish mumkin. Bu olimlarning ilmiy ishlarida barqaror rivojlanish tendensiyalarini ta‘minlovchi metodologiyalar ishlab chiqilgan³.

³ T.Tietenberg Environmental and Natural Resource Economics / 4th ed. Harper Collins College Publishers, New York, 1996. P 10/ R.M.Solow On the intergenerational allocation of natural resources // Scandinavian Journal of Economics, 1986. № 88 (1),p 53/ R.Costanza Three General Policies to Achieve Sustainability. University of Maryland, 2001. p 41/ R.K.Turner Sustainability: principles and practice // R.K.Turner (ed.). Sustainable environmental economics and management: principles and practice. Belhaven Press, London, 1993. P 182/ Smith J. The world's most sustainable companies of 2014 [Электронный ресурс] // Forbes. 2014. URL: <http://www.forbes.com/sites/jacquelynsmith/2014/01/22/the-worlds-most-sustainable-companies-of-2014/> (дата обращения 02.10.2014 г.)/ Й.А.Шумпетер Теории экономического развития / пер. В.С.Автономова. – М.: Директмедиа Паблицинг, 2008. – 355 с./ Nordhaus W.D., Tobin J. Is Growth Obsolete? NBER Chapters // The Measurement of Economic and Social Performance. National Bureau of Economic Research, Inc. 1973. P. 509–564. Nordhaus W.D., Tobin J. Is Growth Obsolete? NBER Chapters // The Measurement of Economic and Social Performance. National Bureau of Economic Research, Inc. 1973. P. 509–564./ Daly H.E., Cobb J.B. For the Common Good: Redirecting the Economy Towards Community, the Environment, and a Sustainable Future. Boston, Mass.: Beacon Press. 1989/ Stiglitz J.E., Sen A. and Fitoussi J-P. Report by the Commission on the Measurement of Economic Performance and Social Progress. [Электронный ресурс] // Commission on the Measurement of Economic Performance and Social Progress [сайт]. URL: <http://www.stiglitz-sen-fitoussi.fr/en/index.htm> (дата обращения: 27.03.2012)/ Henrik Lund, Poul Alberg Ostergaard, Miguel Chang, Sven Werner, Svend Svendsen, Peter SorknEEs, Jan Eric Thorsen, Frede Hvelplund, Bent Ole Gram Mortensen, Brian Vad Mathiesen, Carsten Bojesen, Neven Duic, Xiliang Zhang, Bernd Moller. The status off 4-th generation district heating: Research and results // Energy. № 164, 2018. P. 147-159./ S. Frederiksen, S.Werner. District heating and cooling, Lund Studentlitteratur, 2019./ Werner S. International Review off District Heating and Cooling// Energy.2017. №137. P. 617-637./ Лауф Е. Модернизация рынка тепловой энергии и повышение энергоэффективности зданий объединенной Германии // Энергосовет. №1, 2021. С. 87-84.

Barqaror rivojlanishning umumiy nazariyasini rivojlanish va amaliy jihatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan juda ko‘p ilmiy ishlar mavjud, bularga V.M.Rodionova, M.A.Fedotova, Z.V.Korobkova, V.R.Sibulskiy, A.V.Lyubanenko, A.G.Koryakov, M.A.Mikitas, Ye.Yu.Pechatkina, N.V.Menshikova, N.A.Xomyachenkova, V.S.Veselovskaya, A.B.Gorodilov, A.B.Shestakov, D.V.Damaev, T.L.Bezrukova, S.Chjaosya, Ye.A.Yakovlev, M.Afanaseva, A.Belogorev ishlarini kiritish mumkin⁴.

Aynan sanoat va energetika tarmog‘idagi korxonalarining barqaror rivojlanish mexanizmlari va uni takomillashtirishning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganishga katta hissa qo‘shgan xorijlik olimlar: O.A.Zinger, Ye.N.Kucheroва, M.V.Gerasimova, A.V.Ilicheva, N.P.Tarasova, Ye.B.Kruchina, V.A.Stennikov, A.V.Penkovskiy, S.Sosnova tomonidan muhim izlanishlar olib borilgan⁵.

O‘zbekistonda energetika korxonalarining faoliyatini barqaror rivojlantirish metodologiyasini takomillashtirish va zamonaviy baholash usullarni joriy qilish bo‘yicha K.R.Allaev, M.A.Maxkamova, G.J.Allaeva, G.Sh.Xonkeldieva, E.A.Muminova, M.T.Bo‘taboev, G.M.Davlyatova, A.M.Abdullaev, Sh.N.Axunova, M.S.Saidov, D.U.Mirzarayimov, SH.E.Zokirov⁶ va boshqa olimlar ilmiy tadqiqot ishlarini olib borganlar.

⁴ V.M.Родионова, М.А.Федотова Финансовая устойчивость предприятия в условиях инфляции. – М.: Изд-во “Перспектива”, 1995./ З.В.Коробкова Экономический механизм устойчивого развития предприятия в условиях растущей хозяйственной глобализации // Функционирование предприятий в российской экономике: проблемы и решения : сб. науч. тр. /Под ред. В.В. Титова, В.Д. Марковой. - Новосибирск : ИЭОПП СО РАН, 2006. - С. 57-68./ В.Р.Цибульский, А.В.Любаненко Разработка методики стратегического анализа ресурсно-ориентированных городов. -М: 2019 с. 10./ Коряков А.Г. Управление устойчивым развитием промышленного предприятия: теория, методология, практика: автореф. дис. д-ра эконом. наук: 08.00.05. – М., 2012. – С. 12 ./ Микитась М.А. Механизм влияния организационного потенциала на устойчивое развитие промышленного предприятия: автореф. дис. канд. эконом. наук: 08.00.05. – СПб., 2013. – С. 10./ Е.Ю.Печаткина. Рефлексивное управление устойчивым развитием акционерного предприятия // Вестник челябинского государственного университета. – 2011. № 36. – С. 138./ Хомяченкова Н.А. Механизм интегральной оценки устойчивости развития промышленных предприятий: автореф. дис. канд. эконом. наук: 08.00.05. – М., 2011. – С. 8./ Веселовская В.С, Городилов А.Б. Управление экономической устойчивостью предприятия в современных условиях [Электронный ресурс] // Российский Экономический Университет им. Г.В. Плеханова Казанский институт. 2012. URL: <http://kirgiteu.com/filemanager/download/2374> (дата обращения 29.09.2014 г.)/ Шестаков А.Б. Механизм планирования устойчивого развития промышленного предприятия: автореф. дис. канд. эконом. наук: 08.00.05. – М., 2009. – С. 9./Дамеев Д.В. Комплексная оценка устойчивого развития промышленных предприятий: методический подход: автореф. дис. канд. экон. наук: 08.00.05. – Новосибирск, 2005. – С. 8./ Безрукова Т.Л., Чжаося Ц., Яковлев Е.А. Устойчивое развитие предприятия: вопросы методологии // Механизм регулирования экономики. – 2008. – № 2. – С.214- 221./ Афанасьева М., Белогорьев А. Заем нужен индекс устойчивого развития? // Нефть России. – 2011. – № 11/2011. – С.6-10.

⁵ Зингер О.А. Формирование стратегии устойчивого развития промышленного предприятия: автореф. дис. канд. экон. наук: 08.00.05. – Пенза, 2010. – С. 7./ Кучерова Е.Н. Структурирование проблем устойчивого развития машиностроительного предприятия: Учебное пособие / Е.Н.Кучерова, К.С.Бармашов, – Вязьма: РИЦ ВФ ГОУ МГИУ, 2016. – 90с./ Герасимова М.В. Оценка уровня устойчивого развития нефтегазовой компании/ М.В. Герасимова, Д.Р. Мусина // Экономика и управление: научно-практический журнал. - 2018.- № 2 (140). - С. 114-119./ Ильичева А.В. Формирование механизма оценки устойчивого развития территориально-промышленного комплекса: автореферат дис. ... канд. экон. наук: 08.00.05 / А.В. Ильичева - Москва, 2014. - 25 с./ Тарасова, Н.П., Кручина, Е. Б Индексы и индикаторы устойчивого развития [Электронный ресурс]. Режим доступа: УРЛ: [хтп://www.mnr.gov.ru/филес/парт/8048_индикатор.дос](http://www.mnr.gov.ru/филес/парт/8048_индикатор.дос). / Стенников В.А., Пеньковский А.В. Теплоснабжение потребителей в условиях рынка: современное состояние и тенденции развития // ЭКО. 93, 2019. С. 8-20./ Соснова С. Датское энергетическое чудо // Энергосовет. 95(70), 2010. С. 77-79.

⁶ Аллаев К.Р. Энергетика мира и Узбекистана. -Т. Молия, 2007, 388 с./ Махкамова М.А. Инновационная энергетика Узбекистана. “Энергетика глазами молодежи” IV Международная научнотехническая

Amalga oshirilgan ushbu tadqiqotlar muhim ilmiy va uslubiy manba bo'lsada, bugungi kunda respublikamizda elektr energetikasi sanoatidagi korxonalarining faoliyatini barqaror rivojlantirish va uning samaradorligini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar deyarli amalga oshirilmagan.

Xorijlik va mahalliy olimlarning yuqorida ta'kidlab o'tilgan ilmiy ishlarda amalga oshirilgan sanoat korxonalarini barqaror rivojlanish yo'nalishlarini belgilash va tashkil etishning amaliy tomonlari muhim ilmiy va uslubiy manba bo'lsada, bugungi kunda respublikamizni elektr energetikasi korxonalarini rivojlantirish va undagi sharoitlarni yaxshilash, samaradorlikni oshirish bo'yicha tizimli yondashuv asosida yaxlit mustaqil tadqiqot ishi obyekt sifatida o'rganilmagan. Ushbu holatlarni hisobga olib, mazkur tadqiqot ishi mavzusi tanlangan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Farg'ona politexnika institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq ITD-3 raqamli «Ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash va modernizatsiyalash sharoitida korxonalarining raqobatbardoshligini oshirishni tadqiq etish, boshqarishning samarador uslub va texnologiyalarini yaratish hamda takomillashtirish mavzusidagi ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi O'zbekiston Respublikasida elektroenergetika korxonalarining barqaror rivojlanish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha nazariy-uslubiy hamda amaliy yo'nalishdagi taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

elektroenergetika sanoati korxonalarida barqaror rivojlanish yo'nalishlarini aniqlash mexanizmlarining nazariy-uslubiy asoslarini tadqiq etish;

elektr energetikasi korxonalarini faoliyatini barqaror rivojlantirishning o'ziga xos tashkiliy-iqtisodiy xususiyatlarini aniqlash;

energetika sanoati korxonalarini faoliyatini barqarorlashtirishning me'yoriy-huquqiy asoslarini tahlil qilish;

yashil iqtisodiyotni barqaror rivojlanishining zaruriyati va ahamiyatini tadqiq etish;

конференция.14-18 октября 2013г./ Г.Ж.Аллаева. Совершенствование методологии организационно-экономического механизма устойчивого развития предприятий топливно-энергетического комплекса. автореф. дис.док. экон. наук: 08.00.03. –Ташкент, 2021. – С. 39/ G.Sh.Xonkeldieva. Globallashuv sharoitida elektroenergetika tarmog'ida strategik boshqaruv usullaridan samarali foydalanish "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 1, yanvar-fevral, 2018-yil 1-11 b/ E.A.Muminova. "Yashil" iqtisodiyotga o'tishning xorijiy tajribalari "Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari" elektron jurnal. Maxsus son 2023 yil 66-75 b/ M.T.Bo'taboyev "Yashil iqtisodiyot" Darslik Al-Ferganus 2023 yil // Г.Давлятова. Вопросы оценки уровня эффективного использования ресурсов. Economics and Education, (3), 2021-год. 142–146 стр.// А.М.Абдуллаев. [Современный ландшафт стратегического планирования развития промышленного предприятия в условиях цифровизации](#). «Al-Ferganus», 2023 11-26 стр.// Ш.Н.Ахунова. [К вопросам решения экологических проблем](#). Научный вестник НамГУ–2023-йil_1-son. 131-133 стр.// Saidov M.S. Elektr energetika sohasini tartibga solish va boshqarishda olib borilayotgan islohotlar "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 5, sentyabr-oktyabr, 2021-yil 133-142b/ Mirzarayimov D.U. Barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda energiya tejamkorligi va energiya tejovchi texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari/ "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 5, sentabr-oktabr, 2017-yil № 5, 8-9 bet/ Zokirov Sh.E. O'zbekistonning barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishida qayta tiklanuvchi energetikani rivojlantirish masalalari/ 278 bet.

elektroenergetika korxonalarini barqaror rivojlantirishning xorij tajribasini tahlil qilish va O‘zbekistonga joriy qilish yo‘nalishlarini aniqlash;

jahonda yashil energetika sanoatini rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalari va mamlakatimizda energetika sanoatini rivojlantirishning amaldagi mexanizmlarini ajratib chiqish;

O‘zbekistonda energetika sanoati va issiqlik energetikasining joriy holati hamda ularni barqaror rivojlanish ko‘rsatkichlarini tadqiq etish;

elektroenergetika sanoati korxonalarining barqaror rivojlanishida iqtisodiy faoliyat samaradorligini baholash yo‘llarini aniqlash;

Respublika elektroenergetika sanoati korxonalarini barqaror rivojlantirishning zamonaviy mexanizm va usullari amaliyotga tatbiq etish yo‘llarini ishlab chiqish;

elektroenergetika sanoati korxonalarining barqaror rivojlanishida iqtisodiy faoliyat samaradorligini baholash.

Tadqiqotning obyekti sifatida O‘zbekiston Respublikasidagi elektroenergetika stansiyalari va korxonalari tanlangan.

Tadqiqotning predmeti energetika korxonalarini barqaror rivojlanish jarayonida vujudga keladigan tashkiliy-iqtisodiy munosabatlarning yig‘indisidan iborat.

Tadqiqot usullari. Dissertatsiyada ilmiy abstraksiyalash, tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, statistik, korrelyatsion-regression tahlil va boshqa usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

energetika tizimidagi «Korxonaning barqaror rivojlanish» konsepsiyasi ekologik, iqtisodiy, ijtimoiy, texnik, texnologik va siyosiy jihatlar o‘rtasidagi integratsiyani ta‘minlash orqali takomillashtirilgan;

aholi zichligi hamda iqtisodiyot tarmoqlaridagi korxonalarining elektr energiyasiga bo‘lgan talabidan kelib chiqqan holda hududlarda kichik hajmdagi qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish asosida tizimdagi tabiiy yo‘qotishlarni kamaytirish orqali iqtisodiy samaradorlikni ta‘minlash asoslangan;

elektroenergetika korxonasini barqaror rivojlantirishda «Mobil energo xizmat» guruhini tashkil etish orqali energotejamkorlikni ta‘minlash taklifi asoslangan;

«Issiqlik elektr stansiyalari» AJ tarkibidagi korxonalarni barqaror rivojlantirishda iqtisodiy va texnologik samaradorlikni oshirish asosida ishlab chiqariladigan elektr energiyasi hajmining 2027-yilga qadar prognoz ko‘rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

elektroenergetika korxonalarining faoliyatini barqaror rivojlantirishdagi ilmiy-nazariy asoslari takomillashtirilgan;

elektroenergetika korxonalarining faoliyatini yanada rivojlantirishdagi texnologik jarayonlarni takomillashtirish yo‘nalishlari belgilab berilgan;

elektroenergetika korxonalarining barqaror rivojlanishini ta‘minlovchi iqtisodiy va ekologik samaradorligi yuqori bo‘lgan innovatsion texnologiyalardan foydalanish uslubiyoti takomillashtirilgan;

«Issiqlik elektr stansiyalari» AJ tarkibidagi korxonalarni barqaror rivojlanish holatini baholovchi iqtisodiy va texnologik ko'rsatkichlarining korrelyatsion-regression tahlillari asosida 2023-2027-yillar uchun prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqotda qo'llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, ma'lumotlarning rasmiy manbalardan, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi va Energetika vazirligining statistik ma'lumotlaridan olingani hamda tegishli xulosa va takliflarning mutasaddi tashkilotlar tomonidan amaliyotga joriy etilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati unda ishlab chiqilgan uslubiy takliflar, ilmiy asoslangan tavsiya va xulosalar energetika sanoati korxonalarining barqaror rivojlanishdagi mexanizmlarini takomillashtirish, ularning faoliyatida innovatsion texnologiyalarni joriy qilish mexanizmlarini takomillashtirishga bag'ishlangan maxsus ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarning amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan takliflar va amaliy tavsiyalardan respublika elektroenergetikasidagi korxonalari va sanoatning boshqa tarmoqlaridagi korxonalarining faoliyati samaradorligini ta'minlashda hamda respublikada energiya samaradorligini oshirish bo'yicha ishlab chiqiladigan dasturiy hujjatlarda foydalanish mumkinligi hamda sohani rivojlantirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar majmuini ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Elektr energetikasi korxonalarini barqaror rivojlanish mexanizmlarini takomillashtirish yuzasidan ishlab chiqilgan uslubiy va amaliy takliflar asosida:

energetika tizimidagi «Korxonaning barqaror rivojlanish» konsepsiyasi ekologik, iqtisodiy, ijtimoiy, texnik, texnologik va siyosiy jihatlar o'rtasidagi integratsiyani ta'minlash orqali takomillashtirish «Farg'ona issiqlik elektr markazi» AJ faoliyatiga joriy qilingan. («Farg'ona issiqlik elektr markazi» AJning 2023-yil 18 maydagi 23/19-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi natijasida energetika tizimidagi korxonalarining rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi ekologik, iqtisodiy, ijtimoiy, texnik, texnologik va siyosiy jihatlar o'rtasidagi integratsiya ta'minlangan;

aholi zichligi hamda iqtisodiyot tarmoqlaridagi korxonalarining elektr energiyasiga bo'lgan talabdan kelib chiqqan holda hududlarda kichik hajmdagi qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish asosida tizimdagi tabiiy yo'qotishlarni kamaytirish orqali iqtisodiy samaradorlikni ta'minlash taklifi «Farg'ona issiqlik elektr markazi» AJ hamda «Hududiy elektr tarmoqlari» AJ faoliyatiga integratsiyalashgan holda joriy qilingan («Farg'ona issiqlik elektr markazi» AJning 2023-yil 18 maydagi 23/19-sonli hamda «Hududiy elektr tarmoqlari» AJning 2023-yil 25 maydagi 01-03-10/584-sonli ma'lumotnomalari). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida aholi zichligi va iqtisodiyot tarmoqlaridagi korxonalarining elektr energiyasiga bo'lgan talabiga qarab, hududlarda kichik hajmdagi qayta tiklanadigan energiya manbalaridan

foydalanish orqali tizimdagi tabiiy yo'qotishlarni 30% kamaytirish samaradorligiga erishilgan;

elektroenergetika korxonasini barqaror rivojlantirishda «Mobil energo xizmat» guruhini tashkil etish orqali energotejamkorlikni ta'minlash taklifi «Farg'ona issiqlik elektr markazi» AJ hamda «Hududiy elektr tarmoqlari» AJ faoliyatiga joriy qilingan («Farg'ona issiqlik elektr markazi» AJning 2023-yil 18 maydagi 23/19-sonli hamda «Hududiy elektr tarmoqlari» AJning 2023-yil 25 maydagi 01-03-10/584-sonli ma'lumotnomalari). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida elektr energiyasini ishlab chiqarishda energiya quvvatini oshirish va sohada sog'lom raqobat muhitini tashkil etish, elektr energiyasi sohasida qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanib, energiya quvvatini oshirish hisobiga, energiya narx (tarif) larini mo'tadillashtirish, elektr energetikasini ishlab chiqarish sohasida ilg'or xorij mamlakatlarida ishlab chiqarilgan zamonaviy arzon narxlardagi texnologiyalardan foydalanish imkoni yaratilgan;

«Issiqlik elektr stansiyalari» AJ tarkibidagi korxonalarni barqaror rivojlantirishda iqtisodiy va texnologik samaradorlikni oshirish asosida ishlab chiqariladigan elektr energiyasi hajmining 2027-yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz ko'rsatkichlaridan «Farg'ona issiqlik elektr markazi» AJ faoliyatini rivojlantirishning istiqboldagi dasturlarini ishlab chiqishda foydalanilgan («Farg'ona issiqlik elektr markazi» AJning 2023-yil 18-maydagi 23/19-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida «Issiqlik elektr stansiyalari» AJ tarkibidagi korxonalarni barqaror rivojlantirishda iqtisodiy va texnologik samaradorlikni oshirishning o'rta muddatli istiqboldagi asosiy parametrlarini o'zaro muvofiqlashtirish imkoni yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 6 ta, jumladan, 3 ta respublika va 3 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 17 ta ilmiy ish, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, jumladan, 3 tasi respublika va 3 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 150 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari hamda obyekt va predmeti shakllantirilgan. Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi ko'rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati yoritilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Iqtisodiyotni barqarorlashtirish sharoitida sanoat korxonalarini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari**» deb nomlangan birinchi bobida O‘zbekistonda elektroenergetikasi korxonalarini rivojlanishining tashkiliy-iqtisodiy xususiyatlari, energetika sanoati korxonalarini faoliyatini barqarorlashtirishning me‘yoriy-huquqiy asoslari, hamda yashil iqtisodiyotni barqaror rivojlanishining zaruriyati va ahamiyati yoritilgan.

Milliy iqtisodiyot murakkab ko‘p bosqichli tizim bo‘lib, uning barqaror rivojlanishi ichki va tashqi omillar ta‘sirida shakllanib boradi. Mamlakat iqtisodiyotini raqamli iqtisodiyot darajasiga olib chiqishda barqaror rivojlanish ko‘rsatkichiga erishish mavjud tizimning ko‘lami tufayli murakkab vazifa bo‘lib, u tarmoqlarning ixtisoslashuvidan kelib chiqib ulardagi mavjud korxonalarining darajasida barqaror rivojlanishni dastlabki shakllantirish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Shu sababli uni o‘rganish nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo‘lib, mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

1-jadval

Korxonaning barqaror rivojlanishining kompleks ko‘rsatkichlari tizimi⁷

| | | | | | |
|--|---|--|--|--------------------------------|----------------------------------|
| 1. Iqtisodiy barqarorlikning integral ko‘rsatkichi | | | | | |
| $U_{ib} = M_b + B_b + T_b + ICh_b + T_b + I_b$ | | | | | |
| M_b – moliyaviy barqarorlik | B_b – bozor barqarorligi | T_b – tashkiliy barqarorlik | ICh_b – ishlab chiqarish barqarorligi | T_b – texnologik barqarorlik | I_b – investitsion barqarorlik |
| 2. Ijtimoiy barqarorlikning integral ko‘rsatkichi | | | | | |
| $U_{ijb} = \sqrt[4]{K_{kb} * K_{o'rt} * K_{msh} * K_{ishq}}$ | | | | | |
| K_{kb} – kadrlar barqarorligi koeffitsienti | $K_{o'rt}$ – korxonadagi o‘rtacha ish xaqining tarmoqdagi o‘rtacha ish xaqiga nisbati | K_{msh} – mexnat uchun normal sharoit yaratish koeffitsienti | K_{ishq} – ish haqidan qarzdorlik koeffitsienti | | |
| 3. Ekologik barqarorlikning integral ko‘rsatkichi | | | | | |
| $U_{eb} = \sqrt[4]{K_{rt} * K_{ami} * K_{amnt} * K_{ams}}$ | | | | | |
| K_{rt} – resurstejamkor texnologiyalar koeffitsienti | K_{ami} – atrof-muhit ifloslanishi koeffitsienti | K_{amnt} – atrof-muhit muhofazalash tadbirlari koeffitsienti | K_{ams} – atrof-muhitning sig‘imlilik koeffitsienti | | |
| 4. Risk barqarorligining integral ko‘rsatkichi | | | | | |
| $U_{rb} = \sqrt[2]{K_{rtb} * K_{rib}}$ | | | | | |
| K_{rtb} – riskka nisbatan tashqi barqarorlik ko‘rsatkichi | | | K_{rib} – riskka nisbatan ichki barqarorlik ko‘rsatkichi | | |

Ushbu tadqiqot ishida masalaning dolzarbligi va ko‘plab tadqiqotlar olib borilganiga qaramay «korxonaning barqaror rivojlanishi» atamasining yagona ta‘rifi hali berilmagan, bu borada mualliflik ta‘rifini shakllantirish talab etiladi. Barqaror rivojlanish konsepsiyasi tizimli xarakterga ega bo‘lib, korxonaning barqarorligiga ijtimoiy, ekologik va iqtisodiy barqarorlik mavjud bo‘lganda

⁷ Tadqiqotlar natijasida muallif tomonidan takomillashtirilgan

erishiladi. Bir qator olimlar «korxonaning barqaror rivojlanishi» tushunchasini moliyaviy barqarorlik bilan ifodalaydilar.

Tadqiqotchining ta'rifiga ko'ra «Barqaror rivojlanish - bu energetika tizimidagi korxonalarining rivojlanishiga teng ta'sir ko'rsatuvchi ekologik, iqtisodiy, ijtimoiy, texnik, texnologik va siyosiy jihatlar o'rtasidagi muvozanat va mutanosiblikni saqlashdir».

Hozirgi raqamli iqtisodiyotga transformatsiyalashuv bosqichida sanoat korxonasining barqaror rivojlanish darajasini baholash uchun foydalanish mumkin bo'lgan 3 ta – iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy barqarorlik ko'rsatkichlarini ajratib ko'rsatishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Tadqiqot ishida, yuqorida aytib o'tilgan uchta barqarorlik ko'rsatkichlari majmuidan tashqari, risk barqarorligini ham taklif qiladi. Bu bilan u risk va mehnat unumdorligini boshqarish jarayonlarini birlashtirish hisobiga sanoat korxonasining bozor qiymatida barqaror o'sishining ta'minlanishini nazarda tutadi.

Umuman olganda, ushbu nuqtai nazar, sanoat korxonalarini rivojlanishining barqarorligini baholashning ishlab chiqilgan va amaliyotga tadbiiq qilingan metodologiya har xil turdagi barqarorlik uchun zarur koeffitsientlar va ko'rsatkichlarni taqsimlash imkonini beradi, bu esa o'z navbatida korxonaning o'ziga xos xususiyatlari hisobga olish imkonini beradi.

Tadqiqotlar natijasida, riskni baholash murakkab tahliliy jarayon bo'lib, bu haqida faqat risk barqarorligi ko'rsatkichi doirasida hisoblarni yuritish vaziyatni to'liq aks ettirib bermaydi. Shu sababli, risklar barqarorligini va ularni baholash mexanizmini ishlab chiqish kerak deb hisoblaymiz, bu sanoat korxonasining barqaror rivojlanish darajasini aniqlashda boshqaruv qarorlarini qabul qilishga yordam beradi.

Tadqiqotlar davomida energetika sanoati korxonalarining barqaror rivojlanishi haqida, barqarorlikning eng muhim ko'rsatkichi, ilmiy nuqtai nazaridan, ekologik va texnologik taraqqiyot jihatlarining hisobga olinishidir. Shuning uchun texnologik barqarorlikni alohida integral ko'rsatkich sifatida ajratib ko'rsatish kerak deb hisoblanadi.

Boshqa sohalarga qaraganda elektr energetikasi sohasida faoliyat yuritish birmuncha murakkab va qiyinchiliklarga ega. Elektr energiyasini bir joyda saqlash, taxlash, qadoqlash va bir joydan ikkinchi joyga transport orqali etkazib berishning imkoni yo'q. Elektr energiyasiga bo'lgan talab va taklif bir vaqtning o'zida yuzaga keladi va kuchli tebranishlarni hosil qiladi. Elektr energiyasini ishlab chiqarishdan toki iste'molchiga yetib borgunga qadar bo'lgan taklif vertikal bir-biriga aloqador bo'lgan quyidagi bosqichlar bilan bog'liq: elektr energiyasini ishlab chiqarish; magistral liniyalar orqali uzatish; iste'molchilarga yetkazib berish.

Elektroenergetika korxonasini rivojlantirishning eng muhim muammolari quyidagilardan iborat: milliy energetika tizimlarida tuzilmalarni joylashtirish va ularning faoliyatini tartibga solish yoki rag'batlantirish usullari hamda vositalarini tanlash, iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, mamlakat elektroenergetikasini rivojlantirish, uning raqobatbardoshligi va milliy xavfsizligini ta'minlashda alohida ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot ishida amalga oshirilgan uslubiy yondashuvga ko‘ra moliyaviy barqarorlik bilan ifodalanuvchi «korxonaning barqaror rivojlanishi» tushunchasi energetika tizimidagi korxonalariga nisbatan ularning rivojlanishiga teng ta‘sir ko‘rsatuvchi ekologik, iqtisodiy, ijtimoiy, texnik, texnologik va siyosiy jihatlar o‘rtasidagi muvozanat va mutanosiblikni saqlash nuqtai nazaridan takomillashtirilgan.

| Iqtisodiy hamda ekologik jihatlar | Ijtimoiy, siyosiy jihatlar | Texnik va texnologik jihatlar |
|--|--|---|
| <ul style="list-style-type: none"> • Ko‘mir va tabiiy gazga yuqori darajada bog‘liqlik bartaraf etiladi • Tabiiy resurslardan samarali foydalaniladi • Energiya samaradorligini oshirish uchun mablag‘larning ajratilishi (subsidiyalash) oshib boradi • Samarali energiya manbalari bandlikni oshirishga yordam beradi • Havoning ifloslanishi kamayadi • QTEMni ishlab chiqarish ham xom ashyoni talab qiladi, lekin ularning atrof-muhitga ta‘siri odatda past bo‘ladi • Energiya manbalarining xilma-xilligi bitta manbadan etkazib berish bilan bog‘liq muammolar yuzaga kelganda xavfni kamaytiradi | <ul style="list-style-type: none"> • Jamiyat tomonidan qabul qilingan ko‘mir va tabiiy gazdan voz kechish va energiyani toza energiya manbalariga o‘tkazish strategiyasi • Energiya samaradorligini oshirish uchun davlat sektori salohiyatini oshirish va me‘yoriy-huquqiy bazani yaxshilash • Qayta tiklanadigan energiya manbalariga investitsiyalar uchun yetarlicha rag‘batlantirish va qulay muhit • Energetika sohasidagi xalqaro hamkorlik, ayniqsa, mamlakatlar o‘rtasida elektr energiyasi almashinuvi va umumiy energetika loyihalarini ishlab chiqish • Mamlakatda energiya samaradorligini oshirishda chora-tadbirlarni ishlab chiqish va strategiyalarini belgilash • Elektr energiyasini ishlab chiqarish va taqsimlashni tartibga solish va nazorat qilishda davlat ishtirokini ta‘minlash | <ul style="list-style-type: none"> • Elektr energiyasini ishlab chiqaruvchi korxonalardan oxirgi iste‘molchilarga uzatish va tarqatish tizimlari orqali yetkazish jarayonlarini optimallashtirish • Kichik GESlarning atrof-muhitga salbiy ta‘siri kam bo‘lishiligi • Elektroenergiya ishlab chiqarishda qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish • Energiya samaradorligini oshirish va elektr energiyasini iste‘mol qilishni kamaytirish uchun texnologiyalar va usullarni ishlab chiqish va joriy etish • Elektr energiya tizimlarining ishonchli va samarali ishlashini ta‘minlash uchun nazorat va boshqaruv tizimlarining mavjudligi |

1-rasm Energetika tizimidagi korxonalarni barqaror rivojlanish jihatlar⁸

Hozirgi vaqtda «Yashil iqtisodiyot» xalq turmush tarzini yaxshilashda, real daromadlarini oshirishda sezilarli ta‘sir ko‘rsatib bormoqda. Yashil iqtisodiyotning zarurati, uning xususiyatlari, sanoat tarmoqlarida «yashil» iqtisodiyotga o‘tish, energiya tejmkorligini ta‘minlash masalalari O‘zbekiston iqtisodiyotini isloh qilish jarayonining bir qismi bo‘lib, atrof-muhitni himoyalash, barqaror rivojlanishni ta‘minlashda mamlakat iqtisodiyotida alohida o‘rin tutadi. Bugungi kunda «yashil taraqqiyot» borasidagi maqsadlarga erishish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

«Yashil» iqtisodiyotning muhim xususiyatlari quyidagilardan iborat: tabiiy resurslardan samarali foydalanish; tabiiy kapitalni saqlash va boyitish; atrof-muhit ifloslanishini himoya qilish; kam uglerod chiqaruvchi iqtisodiyotga erishish; chiqindilarni qayta ishlash va mahsulotga aylantirish; ekotizim xizmatlari va biologik xilma-xillikni saqlab qolish; daromad va bandlikni ta‘minlash; iqtisodiyotda energiya samaradorligiga erishish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini to‘la ist‘emol qilishga o‘tish.

Elektr energetikasini ishlab chiqarish, magistral liniyalar orqali uzatish va hududiy elektr tarmoqlari orqali yetkazib berish jarayonidagi ayrim murakkabliklar sifatida quyidagilarni keltirish mumkin: elektr energiyasining bir joyda saqlab turish imkonining yo‘qligi; elektr energiyasiga bo‘lgan talab va taklif har doim kuchli tebranishlar asosida (mavsumga qarab) o‘zgarib turadi; ekologik jihatdan atrof-muhitga yetkazilgan zararlardan hisobiga yuqori xarajatlarni keltirib chiqaradi; elektr energiyasini magistral liniyalar orqali uzatish jarayoni doimo tabiiy monopoliya hisoblanadi; tabiiy yo‘qotilish miqdorining ko‘pligi sababli, elektr

⁸ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

energiyasini ishlab chiqarish, magistral liniyalar orqali uzatish va hududiy tarmoqlar orqali yetkazib berish doimo yuqori hajmdagi vertikal integratsiyalash jarayonini tashkil etadi.

Dissertasiyaning «**Globallashuv jarayonida O‘zbekiston Respublikasi energetika sanoatida barqaror rivojlanishni oshirishning tendensiyalari**» deb nomlangan ikkinchi bobida O‘zbekistonda energetika sanoati va elektroenergetikasining joriy holati, sanoat korxonalarida barqaror rivojlanishni baholashning amaldagi uslubiyoti, jahonda yashil energetika sanoatini rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalari ko‘rsatib o‘tilgan.

Har qanday mamlakat iqtisodiyotida, elektr energiyasiga bo‘lgan talab har doim oshib boradi. Elektr energiyasiga bo‘lgan talab qanchalik yuqori bo‘lsa, uning narxi ham shunchalik o‘ssishi kuzatiladi. Elektr energiyasini ishlab chiqarishda sarflanadigan energiya resurslarining aksariyati qayta tiklanmaydigan resurslar hisoblanadi. Bu esa mahsulot va xizmatlarning tannarxiga o‘z ta‘sirini o‘tkazadi. Iqtisodiyotda o‘tib borayotgan talab har doim yuqori chegaradagi narxlar orqali qondiriladi. Elektr energetika sohasida raqobat muhitini doimo shakllantirib borish, narxlarni pasaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar ishlab chiqish, zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda energiya ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish, sohalarda energiya tejamkor texnologiyalardan foydalanish, energiya ishlab chiqarish stansiyalarini modernizatsiyalash, zamonaviy texnologiyalardan va qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanib ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish orqali iqtisodiy samaradorlikka erishiladi.

2-jadval

Aholi jon boshiga birlamchi yoqilg‘i-energetika resurslari (t.n.e.)⁹

| Yoqilg‘i-energetika resurslari | Yillar | | | | | | | | | | |
|--|--------|------|------|------|------|------|------|------|------|------|------|
| | 2000 | 2005 | 2010 | 2015 | 2016 | 2017 | 2018 | 2019 | 2020 | 2021 | 2022 |
| O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha | 0,2 | 2,2 | 2,1 | 1,6 | 1,6 | 1,6 | 1,7 | 1,6 | 1,3 | 1,6 | 1,7 |
| <i>shundan:</i> | | | | | | | | | | | |
| Neft va gaz kondensati | 0,3 | 0,2 | 0,1 | 0,1 | 0,1 | 0,1 | 0,1 | 0,1 | 0,1 | 0,1 | 0,1 |
| Tabiiy gaz | 1,9 | 1,9 | 1,9 | 1,4 | 1,4 | 1,4 | 1,5 | 1,5 | 1,2 | 1,5 | 1,5 |
| Ko‘mir | 0,03 | 0,03 | 0,03 | 0,03 | 0,03 | 0,03 | 0,04 | 0,03 | 0,03 | 0,03 | 0,04 |
| Gidroelektro-energiya | 0,01 | 0,03 | 0,02 | 0,02 | 0,02 | 0,02 | 0,02 | 0,02 | 0,01 | 0,02 | 0,02 |

2-jadvaldagi ma‘lumotlarga ko‘ra, neft va gaz kondensati resurslari 2000-yilda 0,3 t.n.e. tashkil qilgan bo‘lsa, 2022-yilda 0,2 t.n.e. ga kamayib, 0,1 t.n.e.ni tashkil qilgan. Tabiiy gaz resurslari 2000-yilda 1,9 t.n.e.ni tashkil qilgan bo‘lsa, 2022-yilda 0,4 t.n.e.ga kamayib 1,5 t.n.e.ni tashkil qilgan. Ko‘mir resurslari 2000-yilda 0,03 t.n.e.ni tashkil qilgan bo‘lsa, 2022-yilda 0,04 t.n.e.ni ko‘rsatkichni

⁹O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi.

tashkil qilgan. Hidroelektroenergiya resurslari 2000-yilda 0,01 t.n.e. tashkil qilgan bo'lsa, 2022-yilda 0,02 t.n.e. ko'rsatkich kuzatilgan.

Elektr energiyasini ishlab chiqarish yildan-yilga respublikamizning har bir hududida oshib bormoqda. O'zbekiston Respublikasi bo'yicha elektr energiyasini ishlab chiqarish 2016-yilda 59100,5 mln. kVt. soatni tashkil qilgan bo'lsa, 2022-yilga kelib elektr energiyasini ishlab chiqarish 15210,9 mln. kVt. soatga oshib, 74311,4 mln. kVt. soat elektr energiyasi ishlab chiqarilgan. Lekin ayrim viloyatlarda 2016-yilga nisbatan 2022-yilda elektr energiyasini ishlab chiqarish kamayganligini ko'rishimiz mumkin. Jumladan, Andijon viloyatida - 275,3 mln. kVt. soat, Surxondaryo viloyatida -12 mln. kVt. soat, Buxoro viloyatida - 0,6 mln. kVt. soat, Xorazm viloyatida -2343 mln. kVt. soat elektr energiyasi kam ishlab chiqarilgan. Qolgan viloyatlarda 2016-yilga nisbatan 2022-yilda elektr energiyasini ishlab chiqarish ko'rsatkichlari oshgan. Namangan viloyatida To'raqo'rg'on IES ni ishga tushirilishi hisobiga viloyat bo'yicha jami 2022-yilda 5624,6 mln. kVt. soat elektr energiyasi ishlab chiqarilgan.

Mamlakatimizda ishlab chiqarilgan elektr energiyasi asosan tabiiy gaz, neft va gaz kondensati, ko'mir va suvdan foydalangan holda olinadi. Shundan asosiy qismini tabiiy gaz tashkil qiladi, bu esa ishlab chiqarilgan elektr energiyasi tannarxining qimmatlashishiga olib keladi.

2020-2030-yillarda O'zbekistonni elektr energiyasi bilan ta'minlash uchun Energetika vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan konsepsiya asosida amalga oshirish belgilangan. Innovatsion xalqaro tajribani amaliyotga joriy qilish va global miqyosda elektr energetikani zamonaviy yo'nalishlarni hisobga olgan holda rivojlantirish talab etiladi. O'zbekistonda ehtiyojlar miqdori va hajmi o'sib borayotgan bir vaqtda energetika korxonalarini faoliyatini barqaror rivojlantirishni yo'lga qo'yish vazifasi tayinlangan.

3-jadval

O'zbekistondagi elektr energiyasi ishlab chiqarishning o'rnatilgan quvvatlari(GVt)¹⁰

| Elektr stansiyasining turi | 2010 | 2011 | 2012 | 2013 | 2014 | 2015 | 2016 | 2017 | 2018 | 2019 | 2020 | 2021 | 2022 | 2022 yil 2010 yilga nisbatan %da |
|--|-------------|-------------|-------------|-------------|-------------|-------------|-------------|-------------|-------------|-------------|-------------|-------------|-------------|----------------------------------|
| O'zbekiston Respublikasi | 12,6 | 12,5 | 12,6 | 13,1 | 13,0 | 13,2 | 14,1 | 14,4 | 14,2 | 15,9 | 16,6 | 17,4 | 18,2 | 144,4 |
| shu jumladan elektr stansiya turi | | | | | | | | | | | | | | |
| issiqlik elektr stansiyalari (IES) va issiqlik elektr markazlari (IEM) | 10,8 | 10,8 | 10,8 | 11,3 | 11,2 | 11,3 | 12,2 | 12,5 | 12,3 | 14,0 | 14,6 | 15,2 | 15,8 | 146,3 |
| gidroelektrostansiyasi (GES) | 1,8 | 1,8 | 1,8 | 1,8 | 1,9 | 1,9 | 1,9 | 1,9 | 1,9 | 1,9 | 2,0 | 2,2 | 2,4 | 133,3 |

Shu bilan birga, energiya samaradorligini oshirish uchun hali ham katta zaxiralar va imkoniyatlar mavjud. O'zbekiston bu jihatdan G'arbiy Yevropa davlatlari uchun o'rtacha ko'rsatkichdan - 2,5-3 martaga, AQShdan - 2,2 martaga, Yaponiya va Koreyadan - 3,5 martaga pastroq hisoblanadi. O'zbekistonning YaIM

¹⁰ O'zbekiston Respublikasi statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan

ishlab chiqarishdagi energiya intensivligi MDH mamlakatlarida o'rtacha qiymatdan 1,7 barobar yuqori hisoblanadi¹¹.

2021-yilning yakuniga ko'ra O'zbekiston jami elektr energiyasini ishlab chiqarish ko'rsatkich qariyb 16,6 GVtni tashkil qilmoqda. Bu elektr energiyani ishlab chiqarishda Issiqlik elektr stansiyalari – 14600 MVt, Hidro elektr stansiyalari – 1850 MVt va blok stansiyalar –133 MVt dan ortiq bo'lgan ko'rsatkichlarni qayd etmoqda.

Mamlakatimizda elektr energiyasining asosiy manbalari bu 8 ta issiqlik elektr stansiyalari va 3 ta issiqlik elektr markazlari hisoblanadi. Iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida resurs tejamkor elektr energiyasini ishlab chiqaruvchi qurilmalarining quvvati qariyb 2800 MVt yoki issiqlik elektr stansiyalari umumiy quvvatining 25,5 %ni tashkil qilmoqda. 2021-yilda respublika hududida ishlab chiqarilgan jami elektr energiyasining 84,7 foizi qismi issiqlik elektr stansiyalari tomonidan ishlab chiqarilgan bo'lsa, elektr energetika tizimining maksimal yuklamalar soatlarida energobloklarning umumiy quvvati 8600 MVt ni tashkil qilgan. 2005-2020-yillar oralig'ida O'zbekiston bo'yicha elektr energiyasi iste'molining holati tahlillari shuni ko'rsatmoqdaki, iste'mol hajmi 2020-yilda 2005-yilga nisbatan qariyb 1,5 barobarga, 2010-yilga nisbatan 1,3 barobarga ortgan.

4-jadval

«IES» AJ tarkibidagi korxonalarda 2014-2022-yillarda ishlab chiqarilgan elektr energiyasi hajmi (mln.kVt.soat)¹²

| № | Ko'rsatkichlar | 2014 | 2015 | 2016 | 2017 | 2018 | 2019 | 2020 | 2021 | 2022 | 2022-yilning 2014-yildan farqi, % |
|----|------------------------|---------|---------|---------|---------|---------|---------|---------|---------|---------|-----------------------------------|
| 1 | «Sirdaryo IES» AJ | 11018,9 | 11977,0 | 12878,5 | 13141,3 | 13547,8 | 14412,5 | 14109,1 | 15171,1 | 15803,2 | 143,4197 |
| 2 | «Toshkent IES» AJ | | | | | 6004,7 | 6388,0 | 6388,0 | 6724,2 | 6932,1 | 140,4149 |
| 3 | «Navoiy IES» AJ | 8158,3 | 8498,2 | 9137,8 | 9324,3 | 9612,7 | 10226,3 | 10118,6 | 10764,5 | 11331,1 | 138,8906 |
| 4 | «Tahiyatosh IES» AJ | 3535,3 | 3721,4 | 4001,5 | 4083,1 | 4209,4 | 4478,1 | 4430,9 | 4713,8 | 4961,9 | 140,3526 |
| 5 | «Farg'ona IEM» AJ | 284,8 | 293,6 | 315,7 | 322,1 | 332,1 | 353,3 | 349,6 | 371,9 | 395,6 | 138,9211 |
| 6 | «Muborak IEM» AJ | 175,1 | 184,3 | 198,2 | 202,2 | 208,5 | 221,8 | 219,4 | 233,4 | 245,7 | 140,3526 |
| 7 | «Toshkent IEM» AJ | 235,0 | 250,0 | 268,8 | 274,3 | 282,8 | 300,8 | 297,7 | 316,7 | 329,9 | 140,3682 |
| 8 | «Talimarjon IES» AJ | | | | | 7443,5 | 7918,6 | 7835,3 | 8335,4 | 8593,2 | 137,4588 |
| 9 | «To'raqo'rg'on IES» AJ | 4436,0 | 4769,9 | 5129,0 | 5233,6 | 5395,5 | 5739,9 | 5679,5 | 6042,0 | 6360,0 | 143,371 |
| 10 | «Yangi Angren IES» AJ | 1449,3 | 1541,8 | 1657,9 | 1691,7 | 1744,0 | 1855,4 | 1835,8 | 1953,0 | 2100,0 | 144,8962 |

«IES» AJ tarkibidagi korxonalarda 2014-2022-yillarda ishlab chiqarilgan elektr energiyasi hajmini yuqoridagi 4-jadvalda ko'rishimiz mumkin. Ijobiy ko'rsatkichlarning eng yuqorisi bu «Tahiyatosh IES» AJ faoliyatiga tegishli bo'lib,

¹¹ Добровольный Национальный обзор. О реализации повестки дня до 2030 года в области устойчивого развития. С 77

¹² Toshkent IES» AJ, «Yangi Angren IES» AJ, «Toshkent IES» AJ, «Talimarjon IES» AJ, «Tahiyatosh IES» AJ, «Sirdaryo IES» AJ, «Navoiy IES» AJ, «Farg'ona IEM» AJ, «Muborak IEM» AJ, «Toshkent IEM» AJ ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi

